

7-____sinf o‘quvchisi _____

F.I.SH.

O‘quvchi to‘plagan umumiy ball:_____ (maksimal ball: 40)

5- variant


1. (B 2,5 ball) Hozirda Qoraqalpog‘iston hududida joylashgan Sudoche ko‘llar tizimi minglab pushti flamingolar maskaniga aylangan. Berilgan ma’lumot qaysi tadqiqot metodiga to‘g‘ri keladi?

- A. taqqoslash
- B. kuzatish
- C. tajriba
- D. tarixiy

2. (B 2,5 ball) Yon va qo‘shimcha ildizlari metamorfozga uchragan o‘simlikni aniqlang.


- A. kartoshka, batat
- B. sabzi, rediska
- C. kartoshkagul, batat
- D. sholg‘om, turp

3. (B 2,5 ball) Yorug‘lik mikroskopining 3- raqam bilan ko‘rsatilgan qismi nomi berilgan javob variantini aniqlang.



- A. shtativ
- B. tubus
- C. makrovint
- D. mikrovint

4. (Q 4,5 ball) Sxemada keltirilgan raqamlar ketma ketligida kapcha ilon sistematik birliklari to'g'ri berilgan javob variantini aniqlang.



- A. xordalilar $\rightarrow$ umurtqalilar $\rightarrow$ sudralib yuruvchilar $\rightarrow$ zaharli ilonlar
- B. xordalilar $\rightarrow$ umurtqalilar $\rightarrow$ reptiliyalar $\rightarrow$ tangachalilar
- C. umurtqalilar $\rightarrow$ xordalilar $\rightarrow$ reptiliyalar $\rightarrow$ ilonlar
- D. xordalilar $\rightarrow$ umurtqalilar $\rightarrow$ sovuqqonlilar $\rightarrow$ ilonlar

5. (Q 4,5 ball) Jadval ustunlarida berilgan tirik organizmlarga xos xususiyatlarni o'rganing. O'rgangan bilimlaringizdan foydalanib, jadval qatorlariga mos keluvchi mikroorganizmlar vakillari nomi to'g'ri muvofiqlashtirilgan javob variantini aniqlang.



(– yo'q, + ha)

Organizm	Bir hujayrali	yadroga ega	Avtotrof	Saprofit	Parazit
1	+	–	+	–	–
2	+	+	–	–	+
3	+	+	–	+	–

- A. 1 – sianobakteriya; 2 – triponosoma; 3 – infuzoriya tufelka;
- B. 1 – spirogira; 2 – ulva; 3 – infuzoriya tufelka;


- C. 1 – xlomidomanada; 2 – triponosoma; 3 – oddiy amyoba;
 D. 1 – xlorella; 2 – ichburug‘ amyobasi; 3 – yashil evglena

6. **(Q 4,5 ball)** Sxemada noma'lum X o'simlikka berilgan xususiyatlarni o'rganing. Quyida berilgan o'simlik rasmlaridan sxemaga mos keluvchi o'simlikni aniqlang.



- A. 1- o'simlik
 B. 4- o'simlik
 C. 2- o'simlik
 D. 3- o'simlik

7. **(Q 4,5 ball)** Diagrammada berilgan o'simliklar nomini o'qing. Raqamlar o'rniga umumiy xususiyatlar mos keluvchi to'g'ri ma'lumotlar muvofiqlashtirilgan javob variantini aniqlang.



--	--

- A. 1 – a; 2 –b; 3 – e
 B. 1 – a 2 –e; 3 – f
 C. 1 – e; 2 –a; 3 – d
 D. 1 – f; 2 –b; 3 – a

8. (Q 4,5 ball) O‘rgangan bilimlaringiz asosida o‘simlik va zamburug‘ hujayralari uchun berilgan umumiy xususiyatlari berilgan javob variantini variantini aniqlang.

- a) hujayra ichiga moddalar pinositoz usulda kiradi
 b) yadro irsiy axborotni saqlash va bo‘linish xususiyatiga ega
 d) sellyulozadan tashkil topgan hujayra devori mavjud
 e) endoplazmatik to‘rda oqsillar sintez qilinadi
 f) anorganik moddadan organik modda hosil qiladigan organoidga ega


- A. a, f
 B. a, e
 C. b, d
 D. d, f

9.(Q 4,5 ball) Jadval qatorlarida va ustunlarida berilgan ma’lumotlarni tahlil qiling. Jadvalning qaysi qatorlarida to‘qimalarga xos xususiyatlar to‘g‘ri berilgan.

№	Hayvon to‘qimalariga xos xususiyatlar	Ha yoki yo‘q
1	Silliqlik tolali muskullar bir yadroli bo‘lib, ichak devorlarida ko‘p uchraydi	ha
2	Skelet muskullari suyakka birikkan bo‘lib, inson ixtiyoriga bo‘ysunmaydi	yo‘q
3	Akson va dentritdan iborat nerv hujayrasi tanasida yadrosi joylashgan	ha
4	Kuchli yorug‘likda ko‘zni yumilib olishi neyrogliya hujayrasiga bog‘liq	ha

- A. 1, 4
 B. 2, 4
 C. 2, 3
 D. 3, 4

(M 5,5 ball) Ko'rshapalaklarda tunda harakat qilishda yordam beradigan exolokatsiya deb ataladigan maxsus moslashuv mavjud. Rasmda ko'rshapalaklarning ov qilish jarayonida exolokatsiyadan foydalanishi sxemasi berilgan. Ko'rshapalaklarning exolokatsiyaning ahamiyatini *tushuntirmaydigan* javob variantini aniqlang.



- A. Exolokatsiya orqali o'lja shakli va hajmi haqida ma'lumot oladilar
- B. Exolokatsiyatsyadan o'lja rangi va turi haqida ma'lumot oladilar
- C. Exolokatsiyadan dushmanlaridan qochish va ov qilishda foydalanadi
- D. Exolokatsiya orqali dushmanlari haqida ma'lumot oladilar